

2025-yilgi
Dejon Sog'liqni Saqlash
Universitetining
Koreys tilini o'rganish kurslariga
qabul bo'yicha e'lon



Xalqaro aloqalar va hamkorlik markazi

1. Xalqaro aloqalar va hamkorlik markazining (Koreys tili kursi) haqida ma'lumotlar.

Dejon sog'lijni saqlash unversitetining Xalqaro aloqalar va hamkorlik markazi (Koreys tili kursi) chet davlatda o'rta yoki undan yuqori maktab diplomini tamomlagan xorijlik o'quvchilar yoki Koreyada istiqomat qiluvchi chet elliklar uchun til qobiliyat darajasiga qarab til kurslarini olib bormoqda. Biz o'quvchilarga koreys tilini tizimli ravishda o'rgatish orqali ularni universitetga o'qishga kirishlari hamda Koreyada orzularini ro'yobga chiqarishlari uchun yordam berib, ularga yuqori sifatli koreys tili ta'limini ta'minlab beramiz.

2. Koreys tili kursi (muntazam kurslar)

Dejon sog'lijni saqlash unversitetining muntazam koreys tili kursi olib borishdan asosiy maqsadi, koreys tili ta'lim dasturi orqali xalqaro talabalarning koreys tilida muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishdir. Kurs ta'limi koreys tilida gapirish, tinglash, o'qish va yozish jarayonlaridan iborat bo'ladi.

3. Koreys tilini o'rganish kursinig asosiy ma'lumotlari

O'qitish muddati	10 hafta davomida	Umumiyoq soati	200 soat (dushanba ~ juma) kuniga 4 soatdan dars
O'quv to'lovi	Bir semestr uchun 1,000,000 von (Darslik to'lovi hisobga olinmagan)	Bir sinfdagi o'quvchilar soni	20 kishi yoki undan kam
Darslar soati	Tushlik vaqtigacha bo'ladigan darslar 09:00 ~ 13:00,		
Kurslar darajasi	Koreys tili darajasi (1~6) birdan oltinchi darajagacha bo'lib, sinfga taqsimlanish til darajasi bo'yicha test sinovi orqali bo'linadi (Koreys tilini bilmagan o'quvchilar 1-bosqichdagi sinfga taqsimlanadi).		

	Kuzgi semestr 2025-yil, sentyabr oyidan boshlab 1-bosqichdagi sinf ochilishi reja qilingan.
Bitirish sharti	Agar o'quvchi 70 ball yoki undan yuqori ballni ololmasa va davomat bo'yicha 80% yoki undan yuqori bo'lgan talablarga javob bera olmasa, kursni bitira olmagan deb hisoblanadi. (kurslarda 2 yilgacha o'qish mumkin).
Qo'shimchalar	Yong'in havfidan saqlanish tajribasi, maxsus ma'ruzalar, o'quvchilar uchun maslahat berish va boshqalar mavjud.

4. Koreys tilini o'rganish kursiga kirish shartlari

- O'rta maktab (litsey yoki kollejni) tamomlagan yoki unga teng ma'lumotga ega bo'lgan o'quvchilar.
- Koreys tili kursiga qabul qilinishga ruxsat beruvchi viza (D-4-1 va boshqalar)ni olishda hech qanday diskvalifikatsiya (muammo)ga ega bo'lмаганлар.

5. Koreys tilini o'rganish kursiga qabul muddati

Semestr	O'qitish muddati (20 hafta)	Hujjalarni topshirish muddati	Muvaffaqiyatli qabul qilinganlarni e'lon qilish	Ro'yxatdan o'tish
Kuzgi semestr	25/9/8~11/14	~iyul oyi/12-gacha	Ariza qabul qilingandan keyin bir hafta ichida	Muvaffaqiyatli qabul qilinganligi haqida xabardor qilgandan so'ng darhol ro'yxatga olinadi
Kuzgi semestr	12/04~02/09	~sentabr/05-gacha		

※ Yuqoridagi dars jadvali til markazining sharoitlari va ish olib borish jarayoniga qarab biroz o'zgarishi mumkin.

6. Koreys tili kursiga qabul qilinish usuli

► Tanlov asoslari va qabul qilinish nisbati

Tanlov asosi	Qabul qilinish nisbati	Mazmuni
Hujjalarni asosida	100% (100 ball)	Ariza beruvchi taqdim etgan til ko'nikmalari haqidagi sertifikatlar, akademik Daraja hujjati va boshqa hujjalarni har tomonlama baholamadi. ※ Agar kerak bo'lgan holatda, suhbat (yuzma-yuz yoki video orqali) o'tkaziladi va baholashda hisobga olinadi.

► Tanlov mezonlari

1. Tanlov baholashning umumiyligi balliga qarab, tartib asosida amalga oshiriladi. Ammo, agarda arizachi o'quv qobiliyatining zarur darajasiga javob bera olmaydi

deb ko'rilsa, u tanlovdan o'ta olmasligi mumkin.

2. Bir xil ball olganlarni tanlash mezoni: Barcha teng ball to'plagan arizachilar qabul qilinadi.

3. Agarda taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmasa yoki noto'g'ri ma'lumotlar bo'lsa, ariza rad etiladi.

► Tanlash va qabul qilinish tartibi

① Qabul arizasi va hujjatlarni topshirish - Pochta orqali yoki shaxsan joyga borib topshirish	»	② Hujjatlarni ko'rib chiqish, shu jumladan arizachining qobiliyatini tekshirish ※ Zarur bo'lganda suhbat olib borish (yuzma-yuz yoki Zoom video muloqoti orqali)	»	③ Muvaffaqiyatli qabul qilingan nomzodlarni e'lon qilish ④ O'quv kursi uchun to'lovlarini to'lash ⑤ Standart qabul qilganlik haqidagi sertifikatini berish (COA)	»	⑥ Viza uchun ariza topshirish ⑦ Qabul (talabalik raqamini olish va kursga ro'yxatdan o'tish
---	---	---	---	--	---	---

※ Xitoy, Vietnam, Mo'g'uliston va O'zbekiston talabalari: Viza berilganligi
to'g'risidagi guvohnomani oldan so'ng ta'lim vizasiga topshirishlari mumkin.

7. Koreys tili kursi bo'yicha ma'lumot (dars jadvali)

Dars vaqtiga kuniga 4 soat, haftasiga 5 marta (dushanba, sesshanba, chorshanba,
payshanba, juma)

Har bir sinfga 20 ga yaqin o'quvchi, sinf qabul qilingan o'quvchilar soni va til darajasi
test natijalari asosida guruhlarga bo'linadi

※ Agar yetarli o'quvchi bo'lmasa, sinf ochilmasligi mumkin.

Dars mavzulari: so'z boyligini oshirish va suhbat qurish amaliyoti, grammatika,
gapishtirish, tinglash, o'qish, yozish va boshqalar asosida bo'ladi.

► Maxsus tadbirlar

- Yangi kirganlar uchun kurs yo'nalishi haqida tushuntirish
 - Madaniy tajriba: Koreyaning an'anaviy madaniyati bilan tanishish
 - Tushdan keyingi maxsus mashg'ulotlar: Maxsus darslar, Koreys tili qobiliyati testi
(TOPIK) tayyorlov darslari va h.k.
 - Koreys tilini o'rganish va chet elda o'qish hayotiga oid doimiy maslahatlar
- ※ Maxsus tadbirlar har bir semestrda ish boshqaruvi holatiga qarab o'zgarishi
mumkin.

► O'qiyuvchilar

- Hodimlar: Katta o'qituvchilik tajribasi va mukammal malakaga ega o'qituvchilar,
jumladan koreys tili o'qituvchisi sertifikati ega bo'lgan o'qituvchilardan iborat.

8. Koreys tili kursi uchun hujjatlar

■ Koreys tili kursiga ariza berish uchun kerakli hujjatlar

Turlari	Topshirish kerak bo'lgan hujjatlar
1.Shaxsiyatni tasdiqlovchi hujjatlar	<p>[1-1] Qabul uchun ariza (shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni olishga rozilik hujjati)</p> <p>[1-2] Avtobiografiya (tarjimai hol) (Chet elda o'qish rejası – koreys tilida)</p> <p>[1-3] Pasportning shaxsiy ma'lumotlar bo'lgan betidan nusxa</p> <p>[1-4] 3 ta rangli fotosurat (3,5 sm x 4,5 sm/6 oy Ichida olingani/oq fonda)</p> <p>Chet elda yashovchi arizachilar uchun qo'shimcha hujjatlar</p> <p>[1-5] (Koreya elchixonasi (konsulligi) tomonidan tayinlangan shifoxona tomonidan berilgan sil kasalligi testi natijasining nusxasi (shu jumladan, ko'krak qafasi rentgenogrammasi)</p>
2. Millatini tasdiqlovchi hujjatlar	<p>[2-1] Ota-onaning shaxsiylik guvohnomasi (yoki pasporti) nusxasi (agar ingliz tilida bo'lmasa, notarial tasdiqlangan inglizcha tarjimasi) kerak</p> <p>[2-2] Ota-onalar bilan oilaviy munosabatlar guvohnomasining nusxasi (tug'ilganlik haqida guvohnoma) (agar ingliz tilida bo'lmasa, inglizcha tarjimasi notarial tasdiqlangan) nusxasi kerak.</p>
3. Akademik malakasini tasdiqlovchi hujjatlar	<p>[3-1] O'rta maktabni (11-sinf) tugatganligi to'g'risidagi hujjatning asl nusxasi (notarial tasdiqlangan akademik diplom*)</p> <p>[3-2] O'rta maktabdagи baholar nusxasi (agar ingliz tilida bo'lmasa, ingliz tilidagi tarjimasi notarial tasdiqlangan) nusxasi kerak.</p>
4. Moliyaviy imkoniyatni tasdiqlovchi hujjat	<p>[4-1] Arizachi yoki moliyaviy kafilning bankdagi depozit qoldig'i sertifikatining nusxasi** (Ingliz tilidagi tarjimasi ingliz tilida bo'lmasa, notarial tasdiqlangan nusxasi) - Balans summasi: 10 000 AQSh dollari yoki undan ko'p bo'lishi lozim. ※ Vizaga ariza berilgan kundan boshlab 30 kun Ichida olingan bank balans sertifikati tan olinadi (agarda bank balans sertifikatining amal qilish muddati bo'lsa, u 6 oygacha tan olinadi).</p> <p>Chet elda yashovchilar uchun qo'shimcha hujjatlar:</p> <p>[4-2] Ariza beruvchining yoki moliyaviy kafilning ish joyidan guvohnomasi yoki ish tajriba sertifikatining nusxasi** ※ Kompaniya nomi, ishlagan davri va lavozimi haqida ma'lumot kiritish kerak.</p> <p>[4-3] Ariza beruvchi yoki moliyaviy kafilning daromadi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi(oylik yoki yillik ish haqi) yozilgan holda** (agar ingliz tilida bo'lmasa, ingliz tilidagi tarjimasi notarial tasdiqlangan) nusxasi kerak.</p> <p>** Moliyaviy kafilning hujjati: faqat arizachining ota-onasi (aka-uka va qarindoshlari moliyaviy kafil bo'la olmaydi) - Tekshirish usuli: Chet elda o'qish xarajatlari depoziti tizimi (agar siz to'lovnii bron qilish usuli bilan moliyaviy mahsulotga obuna</p>

	bo'lsangiz, chet elda o'qish xarajatlari depoziti sertifikatini taqdim eti)
--	---

9. Ariza topshirish to'lovi/yotoqxona/boshqa xarajatlar

■ Bakalavr darajasini o'qish uchun kelgan xalqaro talabalarga ustuvorlik beriladi va qolgan o'rinalar til kursi o'quvchilari uchun ajratiladi.

Yotoqxonani tanlasangiz o'qish to'lovi bilan birga hisoblanadi. (kuniga 6500~8200 von)

■ Qo'shimcha xarajatlar -

Ariza topshirish uchun to'lov 20 000 von (o'qish to'loviga kiritilgan holda hisob cheki beriladi)

Sug'urta to'lovi 70 000 von (o'qish to'loviga kiritilgan holda hisob-faktura beriladi)

- Xalqaro talabalarining mamlakatga kirgandan keyin xavfsizligini sug'urtalash (Milliy sog'liqni saqlash sug'urtasiga ro'yxatdan o'tishdan oldin, 3 oy xususiy sug'urtaga ro'yxatga qo'yiladi)

*Chet ellik o'quvchini ro'yxatdan o'tish to'lovi, darslik to'lovi va boshqa to'lovlarni mamlakatga kirgandan keyin to'lash mumkin.

Chet ellik o'quvchini ro'yxatdan o'tkazish to'lovi 35 000 von, bank hisob raqamini ochish to'lovi 1000 von, turli sertifikatlar chiqarish to'lovlari 1000 von, darslik to'lovi va hokazolar mamlakatga kirgandan keyin alohida to'lanadi.

Ta'lif to'lovini qayerga to'lash

kerakligi haqida ma'lumot

Bank nomi: Hana Bank

Omonatchining nomi: Dejon sog'liqni
saqlash universiteti - Xalqaro aloqa va
hamkorlik markazi

Hisob raqami: 646-910095-08105

tezkor kod: KOEXKRSE

10

sug'urtasiga majburiy ro'yxatdan o'tish

bo'yicha yo'riqnomasi

Milliy sog'liqni sug'urtasi to'g'risidagi qonun va uning amal qilish qoidalariga ko'ra, chet ellik talabalar 2021-yil mart oyidan boshlab, Milliy sog'liqni saqlash sug'urtasiga mahalliy obunachilar sifatida avtomatik tarzda ro'yxatga olinadi. (Mamlakatga kirgach, chet ellik ro'yxatidan o'tgandan so'ng darhol sug'urtaga ham ro'yxatdan o'tiladi).

※ Tafsilotlar ro'yxatdan o'tuvchilarga faqat yo'riqnomalar orqali e'lon qilinadi.

11. Eslatmalar

Ariza topshirish muddati ichida barcha kerakli hujjatlarni (nusxasini: pdf shaklda)

international@hit.ac.kr manziliga yuboring.

-> 1-bosqich: Hujjatlarni ko'rib chiqish

-> 2-boshqich: Onlayn intervyu

-> Yakuniy tanlovdan so'ng barcha hujjatlarni (asl nusxalarini) topshirish kerak.

11. Murojaat qilish uchun:

Dejon sog'liqni saqlash universiteti Xalqaro aloqa va hamkorlik markazi veb-sayti:

<https://www.hit.ac.kr/global>

Manzil: Chungjeong-ro, 21, Dong-gu, Daejeon (Gayang-dong, Dejon sog'liqni saqlash universiteti)

Telefon raqami: +82-42-670-9038

Faks: +82-42-670-9561 (Qabul komissiyasi)

E-mail: international@hit.ac.kr ga bog'lanishingiz mumkin.